



## QO'SHMA GAPLARGA TURLICHA YONDASHUVLAR: O'RIN ERGASH GAPLI QO'SHMA GAPLAR VA O'RIN MAYDON

**Kosimova Nozimaxon Kobiljonovna**

Andijon Davlat Chet tillari instituti  
1-kurs magistranti

E-mail: nozimakosimova264@gmail.com

Tel: +998 95 792 12 05

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16900920>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-Avgust 2025 yil

Ma'qullandi: 15- Avgust 2025 yil

Nashr qilindi: 19- Avgust 2025 yil

### KEY WORDS

*qo'shma gap, o'rin ergash gapli qo'shma gap, "o'rin" konsepti, verbalizator, lingvokognitiv yondashuv, maydon.*

### ABSTRACT

*Mazkur maqolada qo'shma gaplar, jumladan, ergash gapli qo'shma gaplar tarkibidagi o'rin ergash gaplar va ular bilan bog'liq nazariy yondashuvlar tahlil qilinadi. Shuningdek, "o'rin" konsepti lingvokognitiv yondashuv asosida ko'rib chiqilib, u tilning morfologik, leksik, sintaktik, frazeologik va paremiologik sathlarida qanday voqelantirilishi — ya'ni verbalizatsiya qilinishi o'zbek va ingliz tillari misolida bayon etilgan. "O'rin" konseptining maydon tabiati ochib berilgan.*

Til insonlar o'rtasida fikr almashish, muloqot qilish va axborot uzatish vositasi sifatida xizmat qiladi. Kommunikativ jarayonda sintaktik birliklar, xususan, gaplar, ayniqsa qo'shma gaplar muhim ahamiyatga ega. Chunki murakkab kommunikativ intensiyani to'liq va aniq ifodalash uchun sodda gaplarga nisbatan kengroq mazmun va qamrovga ega bo'lgan qo'shma gaplardan foydalanish zarur. Shu bois, sabab, maqsad, o'rin, shart, natija kabi grammatik va semantik munosabatlarni ifodalovchi turli qo'shma gap turlari, jumladan, ergash gapli qo'shma gaplar nutqning mantiqan va mazmunan izchil bo'lishida muhim o'rin tutadi.

Zamonaviy sintaksisda qo'shma gap uchta asosiy sintaktik birliklar (so'z birikmasi, sodda gap, qo'shma gap)ning biri sifatida qaraladi. Shu kungacha ko'plab tilshunolar, jumladan, N.S.Pospelov (1950; 1959), A.M.Peshkovskiy (1956; 1959), L.S.Barxudarov (1958), B.I.Ilish (1962), M.A.Asqarov (1963), N.A.Kobrina va E.N.Korneyeva (1965), L.L.Iofik (1965), A.M.Muxin (1968), V.A.Beloshapkova (1970), V.G.Admoni (1973), V.V.Vinogradov (1975), L.G.Fridman (1975), G.A.Abdurahmonov (1976), V.G.Gak (1977), T.A.Kolosova va M.I. Cheremisina (1979; 1985), G.F.Gavrilova (1981), G.F.Kalashnikova (1981), L.N.Dmitriyeva (1981), G.S.Pyurbeyev (1983) M.Y.Blox (1986), G'M.Hoshimov (1991, 2016, 2022) va boshqalar qo'shma gaplarni atroflicha tahlil qilgan.

G'A.Abdurahmonov ergash gapli qo'shma gaplarni mazmunan 13 turga bo'linishini ta'kidlar ekan, ularni aniqlovchi, to'ldiruvchi, ega, kesim, payt, o'rin, sabab, shart, maqsad, to'siqsiz, natija, ravish, qiyoslash ergash gapli qo'shma gaplarga tasniflab tahlil qilgan [1].

M.A.Asqarova ishlarida qo'shma gaplarni struktural jihatdan tadqiq qilish davom ettiriladi. Tadqiqotchi qo'shma gaplarni bog'langan, ergashgan, bog'lovchisiz kabi turlarga ajratadi [2]. U ergashgan qo'shma gaplarning turlarini belgilashda ma'lum aniqlik kiritadi. Olim G'A.Abdurahmonov tomonidan ajratilgan ergash gaplar turlaridan farqli o'laroq, o'xshatish va chog'ishtirish ergash gaplarni ham muayyan tur sifatida beradi.

Qo'shma gaplar tadqiqida G'.M.Hoshimov tomonidan yaratilgan "taksemik nazariya" ham alohida ahamiyatga ega bo'lib, unda asosan qo'shma gaplarning hajmi masalasiga, ya'ni ulardagi komponentlar soni, struktural-semantik jihatlari, komponentlar orasidagi sintaktik bog'lanishlar turlari, komponentlarning kommunikativ-pragmatik jihatlari, ularning terminologik apparati va metatili masalalariga asosiy e'tibor qaratilgan. Mazkur tadqiqotda taksema (taxeme) katta lingvistik belgi bilan ifodalangan invariant sintaktik birlik bo'lib, eng kamida bitta grammatik ega va bitta grammatik kesimdan iborat bo'ladi. Shu ma'noda taksemaning bir turi bo'lgan monotaksema (monotaxeme) faqat bir ega-kesimlik shaklidan iborat bo'lgan gap – sodda gap bo'lsa, politaksema (polytaxeme) esa birdan ortiq ega-kesimlik tarkibiga ega bo'lgan, har biri sodda gapga teng qurilmadan iborat bo'lgan qo'shma gapdir. Politaksema o'z navbatida tarkibidagi komponentlar soniga ko'ra ikki komponentli: a) kollotaksema (collotaxeme), b) parentaksema (parentaxeme), v) parataksema (parataxeme), g) gipotaksema (hypotaxeme), uch komponentli gipertaksema (hypertaxeme), to'rt komponentli super-taksema (supertaxeme), besh komponentli ultrataksema (ultrataxeme), olti va undan ortiq komponentli arxitaksema (architaxeme) kabi turlarga bo'linadi [7].

Tilshunos M.Mirtojiyev esa o'z izlanishlarida qo'shma gap tarkibida birdan ortiq sodda gaplar mavjud bo'lib, ular umumlashgan fikr bildiruvchi yagona ohangga ega bo'lishini ta'kidlaydi. Olim qo'shma gaplar tarkibidagi sodda gaplarni o'zaro bog'lanish usuliga ko'ra uch turga bo'ladi: 1) bog'langan qo'shma gap; 2) ergashgan qo'shma gap; 3) bog'lovchisiz qo'shma gap [5].

Rus tilshunosligida tilshunos Y.G.Birenbaum ergash gapli qo'shma gaplar nazariyasini ingliz hamda rus tillarida ko'rib chiqadi va biriktiruvchi (сложносочинительные союзы) va ergashtiruvchi (сложноподчинительные союзы) bog'lovchilarni farqlaydi. Olim sintaktik munosabatning barcha turdagi vositalarini "konnektorlar" deb nomlaydi. Shuningdek, u o'z ilmiy ishida ergash gaplarni quyidagi to'rt turga bo'ladi: 1) позиционно-именной (ega); 2) позиционно-изъяснительный (to'ldiruvchi); 3) относительно-адъективный; (aniqlovchi); 4) нейтрально-адвербиальный (hol) [3].

N.A.Kobrina va Y.A.Korneyeva izlanishlarida ham yuqoridagiga yaqin tasnifni ko'rishimiz mumkin: "The composite sentence is a sentence consisting of two or more clauses. In its structure a clause is similar to a simple sentence, but unlike a simple sentence it forms part of a bigger syntactical unit" (Qo'shma gap ikki yoki undan ortiq "clause"lardan tashkil topgan gap bo'lib, "clause" tuzilishiga ko'ra sodda gapga o'xshash, lekin sodda gapdan farqli o'laroq u nisbatan kattaroq sintaktik birlikni tashkil qiladi)

Ularning ta'kidlashicha, "clause"lar *coordination* (teng bog'lanish) yoki *subordination* (tobe bog'lanish) orqali bog'lanib qo'shma gapning *compound* (bog'langan) yoki *complex* (ergash gapli) turini hosil qiladi. N.A.Kobrina va Y.A.Korneyeva qo'shma gaplarning quyidagi turlarini farqlaydi:

1. Compound-complex (aralash (bog'langan+ergash gapli qo'shma gap));
2. Complex sentence with homogeneous clauses (qismlari uyushgan ergash gapli qo'shma gap).

Ular ergash gapli qo'shma gaplarni gapdagi vazifasiga ko'ra ham tasnif etadi va ularni uch guruhga jamlaydi: nominal clauses, attributive clauses, adverbial clauses. Bundan tashqari ular hol ergash gapli qo'shma gaplarning 9 ta turini farqlaydi: o'rin (place), payt (time), tarz (manner), qiyos (comparison),

shart (condition), to'siqsiz (concession), maqsad (purpose), sabab (cause), natija (result)[4].

N.Sh.Rahmonovanning ilmiy tadqiqot ishida birinchi marta hol ergash gapli qo'shma gaplar formal-sintaktik nuqtayi nazardan tojik, rus va ingliz tillarida qiyosiy tahlil qilingan. Shuningdek, ishda Hind-Yevropa tillarida lingvistik universallikni ifodalovchi ergash gaplarning o'xshashlik va farqlari qayd etilib, ularning semantik-kognitiv tabiati yoritib berilgan. Ishning yutug'i shundan iboratki, olim tojik tili materiali asosida ergash gaplarni ifoda maqsadiga ko'ra tasniflab, rus va ingliz tillarida ularning o'rtasidagi aloqa vositalarini qiyosiy talqin qiladi [6].

Yuqorida ko'rib chiqilgan nazariy tadqiqotlar tahlilidan xulosa qilish mumkinki, o'rin ergash gapli qo'shma gaplarda ergash gap komponenti voqea-hodisalar yoki harakatlarning sodir bo'lish joyini ifodalovchi semantik vazifani bajaradi. O'rin ergash gap bosh gapga fe'lning shart va bo'lishsizlikni ifodalovchi buyruq mayli formalari orqali birikadi: *Shamol qay tomonga essa, maysalar ham shu tomonga boshini egadi* (Sh. Rashidov). Bundan tashqari, o'ringa munosabatni bildiruvchi nisbiy so'zlar ham komponentlarni biriktiruvchi vosita sanaladi. Quyidagi so'zlar o'rin ergash gapli qo'shma gaplarda nisbiy so'z bo'lib keladi:

**a)** Ergash gapda *qay yer (qayer)*, bosh gapda *o'sha (shu, u) yer* so'zlari ishlatiladi: *Qayerda yangi texnologiyalar joriy etilsa, u yerda ishlab chiqarish tez sur'atda rivojlanadi.*

**b)** Ergash gapda *qay*, bosh gapda *shu* so'zlari qo'llanadi: *Yuraging guli qayerda ochilur bo'lsa, bulbul ham shunda sayrar. Hasankhon qayerda bo'lsa, qiy-chuv ham u yerda bo'lur* ("O'zbek xalq dostonlari").

**c)** Ergash gapda *qay (qaysi) tomon*, bosh gapda *shu (o'sha) tomon* so'zlari ishtirok etadi: *Qay tomondan xavfyaqinlasha boshlasa, askarlar o'sha tomonni himoya qilishga o'tlanishadi.*

Ayrim ergash gaplarning kesimlari ot kesim shaklida kelib, *ekan* to'liqsiz fe'li bilan birga qo'llanadi:

*Qayerda bekorchilik bor ekan, u yerda bema'nigarchilik avj oladi.* Ot kesim shaklida ifodalangan ergash gap kesimlaridan keyin esa to'liqsiz fe'l ham ishlatiladi: *Qayerda saodat hurib, oshiyon, xalqining hayotidan minnatdor esa, Shu yerda qo'shiqdan jaranglab osmon:*

*Mehnatdir – muhabbat, sharafdir – bo'sa* (G'. G'ulom).

Ingliz tilida esa o'rin ergash gaplari bosh gap bilan ergash gap bog'lovchilari (subordinating conjunctions) *where, wherever* yordamida bog'lanadi: *I like to spend my leave where I can shoot; Wherever he went, he was welcome.*

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, tadqiqotimiz obyekti bo'lgan o'rin ergash gapli qo'shma gaplar ayrim tadqiqotchilar tomonidan umumiy ergash gaplar doirasida muayyan darajada o'rganilgan bo'lsa-da, ular alohida tadqiqot obyekti sifatida kompleks tahlil etilmagan. Xususan, bu turdagi gaplar ikki tilda — o'zbek va ingliz tillarida — "o'rin" konseptining maydon tabiati nuqtai nazaridan izchil yoritilmagan. Quyida "o'rin" konseptining lingvokognitiv talqini va u bilan bog'liq til birliklarining maydon doirasida qanday voqelantirilishi batafsil tahlil qilinadi.

Ma'lumki, har bir til birligi muayyan konseptning ifodachisi sifatida namoyon bo'ladi. O'rin ergash gaplar vositasida yuzaga keladigan "o'rin" konsepti nafaqat sintaktik darajada, balki tilning boshqa birliklari morfemalar, leksemalar, frazemalar, frazeoemalar, hatto paremiemalar orqali ham voqelantiriladi. Quyida "o'rin" konsepti verbalizatorlari tahlilga

tortiladi:

**1. Morfemalar orqali, masalan o'zbek tilida:** a) - **da:** Andijonda, maktabda; b) - **dan:** uydan, hovlidan; c) - **ga:** sahnaga, bozorga; d) shart mayli qo'shimchasi -**sa:** Shamol qay tomonga essa, maysalar ham shu tomonga boshini egadi; e) buyruq mayli qo'shimchasi -**sin:** U qayerda ishlamasin, orqasidan faqat yaxshi gap qoladi.

Ingliz tilida "o'rin" konseptining voqelantirilishiga to'xtalsak, ingliz tili analitik til hisoblanganligi tufayli unda o'rinni bildiruvchi affiksial morfemalar (qo'shimchalar) o'zbek tilidagidek keng ishlatilmaydi. Biroq joy (place) yoki o'rin (location) konsepti morfema darajasida ba'zi birliklar orqali ifodalanadi. Masalan:

**a) Old qo'shimchalar (prefixes)** orqali: "in-", "on-", "under-", "over-", "sub-", "inter-", "trans-". Masalan, **in-** (joy ichkarisida) — *indoor* (xona ichida), *inside* (ichkarida); **on-** (joy ustida) — *onshore* (qirg'oqda), *onboard* (kemada); **under-** (joy ostida) — *underground* (yer ostida), *undercover* (maxfiy); **over-** (yuqorida, ustidan) — *overhead* (yuqorida), *oversee* (nazorat qilish); **sub-** (tagida, pastda) — *submarine* (dengiz osti kemasi), *subway* (metro); **inter-** (oralik) — *international* (xalqaro), *interstate* (shtatlar orasida); **trans-** (osh/tomon, orqali) — *transatlantic* (Atlantika bo'ylab), *transport* (tashish).

**b) Orqa qo'shimchalar (suffixes)** orqali: **-side** (tomon) — *riverside* (daryo qirg'og'i), *outside* (tashqarida), *countryside* (qishloq hududi); **-ward/-wards** (yo'nalish) — *homeward* (uy tomon), *eastward* (sharq tomon), *backwards* (orqaga); **-land** (hudud, joy nomi) — *England* (Angliya), *Iceland* (Islandiya), *homeland* (vatan).

**c) Qo'shma morfemali (compound) birliklar:** *upstairs* (yuqori qavatda) — up + stairs; *downhill* (pastga, qiyalikda) — down + hill; *outdoors* (tashqarida) — out + doors; *backstage* (sahna ortida) — back + stage.

**2. Leksemalar orqali o'zbek tilida a) yordamchi so'z turkumiga kiruvchi o'rin bog'lovchilari orqali,** o'zbek tilida: *qayerda, qayerga, qayerdan, shu yerda, nwherever, from where, to where, in which, at which, there where*

**b) ravishlar orqali** o'zbek tilida: *tepada, pastda, ichkarida, tashqarida, oldinda, orqada, yonida, qarshisida;* Ingliz tilida: *above, below, outside, inside, nearby, behind, ahead, beside, underneath.*

**c) olmoshlar orqali** o'zbek tilida: *qayerda, qayerga, qayerdan, qayerdadir;* Ingliz tilida: *where, wherever, somewhere, anywhere, nowhere, everywhere*

**3. Frazemalar (so'z birikmalari) orqali** o'zbek tilida: a) **ot+ot:** *o'qituvchilar xonasi, o'quv binosi, o'quv markazi, sport maydoni;* Ingliz tilida: *conference room, lecture hall, police station;* b) **sifat + ot** o'zbek tilida: *chap taraf, to'g'ri joy, bo'sh o'rin, pastki qatlam, yuqori pog'ona;* Ingliz tilida: *left side, right place, vacant seat, lower level, upper rank;* c) **son + ot** o'zbek tilida: *birinchi o'rin, uchinchi saf, beshinchi xona;* Ingliz tilida: *third row, fifth room, fourth section;* d) **olmosh + ot** o'zbek tilida: *uning joyi, u yerda, bizning o'rin, sening tarafing;* Ingliz tilida: *this/that place, my spot, our seat, your side;* e) **preposition+noun** birikmalar ingliz tilida: *in the room, on the table, under the bed, behind the door, next to the window, in front of the school, between the chairs, at the station.*


**4. Frazoemalar orqali** o'zbek tilida: *Joyidan qimirlamaslik, o'z o'rnini topmoq, joy bermaslik, joyida qotmoq, joy topolmaslik;* Ingliz tilida: *be in the right place at the right time, out of place, fall into place, in place, take someone's place, put someone in their place, know one's place; where the rubber meets the road; where the shoe pinches; to know where the bodies*

are buried

**5. Paremiemalar (maqollar va matallar) orqali** o‘zbek tilida: Qayerga borsang, odobing bilan bor; Qayerda suv bo‘lsa, o‘sha yerda hayot bor; Qayerda halol rizq bo‘lsa, o‘sha yerda baraka bo‘ladi; Ingliz tilida: Where there’s a will, there’s a way; Where generosity exists, blessings increase; Where destiny leads, the heart must follow.

**6. Sentensemalar orqali:** **a) monosentensema** o‘zbek tilida: U do‘stining yonida o‘tiribdi. Ingliz tilida: I am walking in the garden; **b) polisentensema** o‘zbek tilida: U qayerga borsa, men ham o‘sha yerga boraman; U qayerda ish boshlasa, o‘sha joyda muvaffaqiyat qozonadi. Kitob qayerda turgan bo‘lsa, o‘sha yerda qoladi; Ingliz tilida: They built a house where the old barn used to be; You can leave your shoes wherever you want; I met her in the park where we used to play as kids.

Shunday qilib, yuqorida biz qiyoslanayotgan tillardagi “o‘rin” konseptini voqealantiruvchi vositalar – verbalizatorlarning struktural–semantik turlarini aniqladik. Tabiiyki, ularning majmuasi tillarda mazkur konseptni voqealantiruvchi maxsus verbal vositalar tizimini tashkil etadi. Bunday tizim esa, tillarda “o‘rin” konsepti verbalizatorlarining lingvokognitiv maydoni borligidan dalolat beradi. Ushbu konseptning lingvokognitiv maydoni yadro, dominant va chekka (periferial) a‘zolar (konstituentlar)dan tashkil topgan bo‘lib, mazkur maydonning dominant a‘zolarini eng faol qo‘llaniluvchi frazemalar (ot+ot, sifat+ot; son+ot, predlog+ot shaklidagi birikmalar), yadrosini sintaksemalar (monosentensema va polisentensemalar) tashkil etsa, qolgan konstituentlar (leksemalar (yordamchi so‘z turkumiga kiruvchi o‘rin bog‘lovchilarilar, affiksial morfemalar) frazeoemalar va paremiemalar) esa mazkur maydonning chekka (periferial) a‘zolarini tashkil etadi. Quyida qiyoslanayotgan tillarda “o‘rin” konseptini voqealantiruvchi verbalizatorlarning lingvokognitiv maydonining diagrammasi berilgan:



Xulosa qilib aytganda, o'rin ergash gapli qo'shma gaplar tilda o'rin (joy, makon) konseptini ifodalovchi asosiy sintaktik vosita bo'lib xizmat qiladi. Ushbu gaplar mazmunan bosh gapdagi holatni aniqlashtiradi va hodisalar yoki harakatlarning amalga oshish manzilini ko'rsatadi. Qiyosiy-lingvistik tahlil shuni ko'rsatadiki, o'zbek va ingliz tillarida "o'rin" konsepti turli grammatik, leksik, frazeologik va paremiologik birliklar vositasida voqelantiriladi. Tahlil natijalariga ko'ra, ushbu konseptning lingvokognitiv maydoni yadro, dominant va periferial konstituentlardan iborat murakkab tizimni tashkil etadi. Bu esa "o'rin" konsepti tilning barcha sathlarida, xususan, qo'shma gaplar orqali qanday ifodalanishini aniqlashtirishga xizmat qiladi va ushbu gap turlarining semantik-pragmatik xususiyatlarini chuqurroq o'rganish imkonini beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Абдурахмонов Ф.А. Қўшма гап синтаксиси асослари. – Т., Фанлар Академияси нашриёти, 1958. – 245 б.
2. Асқарова М.А. Ҳозирги ўзбек тилида эргашиш формалари ва эргаш гаплар. – Тошкент: Фан, 1966. – 44 б.
3. Биренбаум Я.Г. К теории сложного предложения (На материале английского языка) // Вопросы языкознания. N2. – 1982. – С. 52–58.
4. Кобрина Н.А., Корнеева Е.А. и др. Морфология. Синтаксис. – Петербург: Союз, 1999 – 496 с.
5. Миртожиев М. Современный узбекский язык. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – 15 б.
6. Рахмонова Н.Ш. Семантическая структура СПП в системе синтаксиса: лингвокогнитивный подход (на материале таджикского, русского и английского языков): Автореф. дисс.... д-ра. филол. наук. – Душанбе, 2017. – 23 с.
7. Хошимов Г.М. Типология сложных предложений разносистемных языков. – Тошкент: Фан, 1991. – 106 с.